

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI

Gulnur Aldabergenova

Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Nukus shahar №28-sonli ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola bolajonlarda har bir fanni chuqurroq o‘zlashtirishlari uchun didaktik o‘yinlarning ahamiyati masalalariga diqqat qaratilgan. Dars samaradorligi yuzasidan metodlarni o‘rinli qo‘llash nuqtayi nazaridan turli mulohazalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy metodlar, ta‘lim metodlari, mantiqiy tafakkur, ta‘limiy o‘yin, diqqat, didaktik o‘yin.

Hozirgi vaqtda ta‘lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. Bunday metodlarni qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta‘lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, savodxonligi va o‘z-o‘zini anglash qobiliyatini shakllantirishga, jismoniy sog‘lom bo‘lishga, olam go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana bilishga, milliy urf-odatlarini o‘zida singdirish va ardoqlashga o‘rgatadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda mazkur bilim va ko‘nikmalarning bo‘lishi uning me‘yorida bilim olayotganini bildiradi. Biroq ayrim holatlarda o‘quvchilar bilimida bo‘shliqlar yuzaga keladi. Bu bo‘shliq, albatta, o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Bunga nimadir sabab bo‘lishi mumkin, albatta.

Odatda bolalar juda qiziquvchan bo‘ladi. Biroq ta‘lim-tarbiya jarayonidagi ozgina qiyinchilik ham ularning qiziqishlari so‘nishiga sabab bo‘lishi mumkin. Natijada bu

o‘quvchilarning qobiliyati va bilim olishiga salbiy ta‘sir etadi. Qarabsizki, ular sust o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar safiga qo‘shilib qoladilar. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aksariyatida diqqat ixtiyorsiz bo‘ladi. Mana shunday vaziyatda didaktik o‘yinlarning ahamiyati katta.

O‘quvchining aqliy salohiyatini rivojlantirishda pedagogik texnologiyaning asosiy talabi-unga mavzuni barcha imkoniyatlarni ishga solgan holda, qulay usullar orqali yetkazishdir. Quyidagi o‘yinlarda shu jihatdan urg‘u berilgan. Masalan:

1-sinf uchun O‘qish darsida o‘quvchilarni harflar asosida so‘z tuzishga va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishimiz uchun **“Navbatchi harf”** o‘yini o‘ynashi mumkin. Bunda o‘qituvchi qirqma qog‘ozlarda har bir o‘quvchiga bitta harf yozilgan qog‘oz berib chiqadi. Kimga qaysi harf tushgan bo‘lsa, o‘sha harfdan keladigan so‘zlarni navbatma-navbat aytishi kerak:

1. *Guldana*: “A” harfi – ayiq, asal, anor...;
2. *Serik*: “B” harfi – baliq, bahor, binafsha...;
3. *Jarqinay*: “D” harfi – daraxt, dengiz, dehqon...;
4.

Matematika darsida ham har xil didaktik o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki matematika aql charxi sifatida o‘quvchilarning topqirlik qobiliyatini oshiradi. Jumladan, “Raqam uchun kurash”, “Jadvalni to‘ldir”, “Matematik estafeta”, “Kim chaqqon?”, “Zanjir”, “Jim-jim” o‘yinlari orqali o‘quvchilar zukkoligi dars jarayonida ko‘rinadi.

“Matematik estafeta” o‘yini

Misollarni yeching	6	3	8	2
$4-1=$		+		
$5+3=$			+	
$3+3=$	+			
$3-1=$				+

Bundan tashqari matematika darsida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun har xil qiziqarli topshiriqlar berish mumkin:

“Qiziqarli topshiriq”


1. Uch cho'pning nechta uchi bor? Ikki yarimta cho'pning-chi?
2. Yig'indisi 8 ga teng bo'ladigan misollar tuzing.
3. 1 ta kam 6, bu qaysi son?
4. 7 ga qo'shni sonlarni yozing va hokazo.

Ona tili darslarida ham har bir darsni didaktik o'yinlar asnosida o'tkazish imkoni ko'p. Chunki bolajonlar hali o'yin bolasi bo'lganligi bois vaziyatdan kelib chiqib har xil ta'limiy o'yinlar tashkil qilish mumkin. Masalan, Ism va familiyalarning yozilish jarayonini o'rganish borasida xohlang jadval ko'rinishida, xohlang klaster usulida diqqatlarini jalb qilgan holda mavzuni o'zlashtirishlari mumkin:

“Bizning oila”

Ota	Seytmuratov Nurlan	
Ona	Tajenova Elmira	
Aka	Jalg'asbayev Jandarbek	
Opa	Jalg'asbayeva Jansuliy	
Uka	Jalg'asbayev Jasulan	
Singil	Jalg'asbayeva Janerke	

Bundan tashqari “Kim ko'p ism topadi?” o'yinini ham klaster ko'rinishida davom ettirishi mumkin.



Demak, didaktik o‘yinlar samardorligi shundaki, u nazariy va amaliy mohiyatga ega bo‘lib, u asosida o‘quvchilarning faolligi ortadi, fikrlash doirasi kengayadi. O‘quv dasturida rejalashtirilgan bilimlar yengil, oson va qiziqarli o‘zlashtirilshiga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva Q va boshqalar. *Savod o‘rgatish metodikasi*. Toshkent «O‘qituvchi» 1996 yil.
2. Bagirova M. *Bo‘g‘inlab o‘qish.*” *Boshlang‘ich ta’lim.*”1993 yil. 13-bet.5-6 son.
3. Safarova F, Inoyatova va boshqalar. *«Alifbe» Toshkent.Ma’naviyat.* 2005 yil.
4. Ro‘ziboyeva O‘.Sh. *«Ona tili o‘qitish metodikasi» ma’ruza Guliston* 2007 yil.